



Sounds of doyra

Dilmurad ISLAMOV¹

Uzbekistan state institute of arts and culture

ARTICLE INFO

Article history:

Received April 2022
Received in revised form
20 April 2022
Accepted 15 May 2022
Available online
15 June 2022

Keywords:

doyra art,
national music,
historical miniatures,
performance styles,
musical heritage,
teacher-student traditions.

Doira sadolari

Kalit so'zlar:

doira san'ati,
milliy musiqa,
tarixiy miniaturalar,
ijrochilik uslublari,
ustoz doirachilar,
musiqiy meros,
ustoz-shogird an'analari.

ABSTRACT

Percussion instruments, especially the doyra, have a special place in the Uzbek national music culture. The only way the doyra performs is to determine the temp and rhythm of the melody.

This article describes the importance of the doyra instrument in the national art and cultural life our people, as well as historical information about this instrument.

2181-1415/© 2022 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol3-iss3-pp142-145>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

ANNOTATSIYA

O'zbek milliy musiqa madaniyatida urma zarbli cholg'ular, xususan, doira cholg'usi o'ziga xos o'rin tutadi. Doirachining ijro etgan birgina usulidan quyning tempi, ritmi ma'lum bo'ladi.

Mazkur maqolada doira cholg'usining milliy san'atimiz hamda xalqimiz madaniy hayotidagi ahamiyati, ushbu cholg'u bilan bog'liq tarixiy ma'lumotlar bayon etilgan.

¹ Professor, department of instrumental performance, Uzbekistan state institute of arts and culture.
E-mail: qobilqoriyev93@mail.ru.

Звуки дойры

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

искусство дойры,
народная музыка,
исторические миниатюры,
стили исполнения,
музыкальное наследие,
традиции наставник-
ученик.

Ударные инструменты, особенно дойра, занимают особое место в узбекской национальной музыкальной культуре. Единственный способ удар дойры определить темп и ритм мелодии.

В данной статье рассказывается значение исполнения дойры в национальном искусстве и культурной жизни нашего народа, а также приводятся исторические сведения об этом инструменте.

Urma zarbli cholg'ular kuyning o'ziga xos ritm qatorini tashkil etib, alohida o'rin egallaydi. Ko'plab dunyo xalqlarida kuy-qo'shiqlar urma zarbli cholg'ular ritmi asosida ijro etiladi. O'zbek milliy musiqa madaniyatida keng qo'llaniluvchi cholg'ulardan biri doiradir.

Barchamizga ayonki, kuy-qo'shiqqa, san'atga muhabbat, musiqa madaniyati xalqimizda bolalikdan boshlab, oila sharoitida shakllanadi. Uyida dutor yoki doira cholg'usi bo'lmagan, musiqaning hayotbaxsh ta'sirini o'z hayotida sezmasdan yashaydigan inson yurtimizda bo'lmasa kerak.

Doira xalqimizning ma'naviy boyligi, xalq ijodida asrlar – osha shakllanib, rivojlanib kelgan, maqomlarda asosiy negiz va usul vazifasini bajaradi. O'rta asrlar kitob bezaklarida (miniaturalarida) turli cholg'ularda ijro etayotgan sozandalarga jo'r bo'lib, chalayotgan doirachilarni ko'rishimiz mumkin.

Doira – aniq tovush balandligiga ega bo'lmagan urma zarbli cholg'ulardan biridir. Doiraning gardishi, asosan, tut, o'rik, yong'oq, tok daraxtlarining yog'ochidan aylana shaklida yoki bo'laklarga bo'lib, tayyorlanadi. Hozirgi kunda akatsiya, klyon daraxtlaridan ham xomashyo sifatida foydalanilmoqda. Doira gardishining diametri avvallari 39 sm. dan, 42 sm. gacha kattalikda yasalgan bo'lsa, hozirda esa uning diametri 36-38 sm.ni tashkil etadi. Uning bir tomoniga teri qoplanadi. Gardishning teriga tutashgan ichki tomoni tovushni bo'g'masligi uchun biroz yo'nilgan bo'lishi lozim. Doira cholg'usi uchun, asosan, buzoq, tuyay, toychoq terilaridan foydalaniladi. Bunda avvaldan ishlov berilgan va ivitilgan teri gardishga maxsus yelim (sirach) yordamida yopishtiriladi. Doira gardishning ichki tomoniga 50 tadan 75 tagacha maxsus metall halqachalar (shing'iroqlar) o'rnatiladi. Cholg'u silkitib ijro qilinganda ushbu halqachalar yoqimli tovush hosil qiladi. Doirani quruq joyda saqlash tavsiya etiladi. Sababi, unga qoplangan teri namlik ta'sirida bo'shashib, o'zining jarangdor tovushini yo'qotadi. Bu holatda doirani oftobda, olovda yoki maxsus prajektorlarda ehtiyotkorlik bilan toblab, quritish zarur. Ushbu jarayonda avval doiraning gardishi, keyin esa terining gardishga tutashgan qismi quritilib, asta-sekin toblanadi. So'ngra doiraning teri qoplangan qismi qizdiriladi. Doira ritmik va dinamik usul imkoniyatlariga juda boy cholg'u bo'lib, unda ikkala qo'lning barmoqlari va shapaloq bilan ijro qilinadi. Doira cholg'usi yillar mobaynida ayrim qadimiy tasvirdagilarga nisbatan ba'zi o'zgarishlarga uchragan. Masalan, hozirgi doira gardishida kichkina lappaklar o'rnatiladigan teshiklar yo'q. Ularning o'rnini gardishning ichki tomonidan osilgan maxsus temir halqachalar, ya'ni "shing'iroq"lar egallagan. Mazkur cholg'u shuningdek, tojik, uyg'ur xalqlarida ham keng tarqalgan. Doirada ijrosidagi usullar tizimi qadimdan shakllangan bo'lib, ustozlar tomonidan "bum", "bak",

“bakko” yoki “bakka”, Xorazmda “gup”, “taq”, “taqqa” atamalari bilan yuritilgan. Bunda “bum” nisbatan past tovush bo‘lib, bunda to‘rtta barmoqni birgalikda zich juftlab, membrana (teri) o‘rtasiga urib ijro etiladi. “Bak” ham membrana o‘rtasiga, faqat barmoqlarni kergan holda urib, ijro qilinadi. Doira cholg‘usi xalq orasida “childirma”, “chirmanda” nomlari bilan ham ataladi.

Doira cholg‘usi qadimdan xalqimizning madaniy hayoti bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Tarixga nazar tashlasak, xoh u harbiy yurishlar bo‘lsin, xoh xonlar saroyidagi bazmlar, to‘y-tomoshalar, bayramlar, turli tantana va marosimlar bo‘lsin, ularning hech biri doira ishtirokisiz o‘tmagan. Bu davrlarda doiraning asosiy vazifasi raqsga melodik cholg‘ular va ovozga jo‘r bo‘lishdan iborat bo‘lgan. Odatda, ansambllarda bir yoki bir necha doirachilar qatnashishgan.

Markaziy Osiyo hududida olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida olingan ma‘lumotlarga qaraganda, islom davridan oldingi zamonlarda doiraga, asosan, ayollar jo‘r bo‘lgan.

Ularning doira usullariga mos qo‘shiq aytish va raqsga tushishi o‘sha davrlarda shakllanib, asrlar -osha rivojlanib, takomillashib kelmoqda.

Bugungi kunda ham Samarqand, Farg‘ona, Buxoro, Namangan va boshqa bir qator viloyatlarda doiraga jo‘r bo‘lib qo‘shiq aytadigan, raqsga tushadigan ayollardan iborat xalq dastalarini uchratish mumkin.

Jo‘rnavoz va yakka zarbli soz sifatida ommalashgan doira o‘zining rivojlanib kelayotgan milliy ohanglarga boy zarb va usullari bilan xalqning hurmat-e‘tiborini qozongan.

Ma‘lumki, doira va barcha zarbli cholg‘ular ijrochiligi vujudga kelishi va ravnaqi jarayonida Markaziy Osiyo miqyosida har bir vohada o‘ziga xos mahalliy ijrochilik uslublari shakllangan. Mazkur uslublarda har bir vohaning o‘ziga xos xususiyatlari, ahamiyatga molik tomonlari hamon o‘z mohiyatini saqlab kelmoqda. Bularga Xorazm doira ijrochiligi, Buxoro – Samarqand, Farg‘ona – Toshkent doira ijrochiligini misol qilib keltirishimiz mumkin.

Musiqaga oid manbalardan ma‘lum bo‘lishicha, qadimdan barcha vohalar musiqiy dastalarining ijro faoliyatida doira doim ishtirok etgan. Odatda, bir doirada chalish keng ommalashgan, lekin ayrim hollarda ikki, uch doira ham chalinganligi ma‘lum. Biroq barcha ma‘lumotlarda birdek, doira yakkanavozligi to‘g‘risida so‘z yuritilmagan. Ushbu holat XX-asrning dastlabki yillariga ham taalluqlidir. Ammo doira cholg‘usining butun ijroviy xususiyatlari yakkanavozlik, raqsga jo‘r bo‘lish jarayonida to‘la namoyon bo‘ladi.

Doira yakkanavozligining tashkil topishida raqs san‘atining ta’siri katta bo‘lganligini e‘tirof etish lozim. Zero, mazkur jarayon raqslarga xos harakat, lutf, joziba, imo-ishoralar kabi xalqimizning o‘ziga xos go‘zal an‘analarini doira usullarida to‘la ifodalash bilan bog‘liqdir. Shu bilan birga, bu holat xilma-xil, rang-barang usullar majmuasini tuzish va ularni mohirona chalish bilan chegaralanib qolmay, balki milliy raqs san‘ati sirlarini ham tushuntirish, tinglovchilarga yetkazib berish, yurakdan his etishni talab qiladi.

Ohang va vazn jihatdan tarkib topgan xilma-xil murakkab raqslar majmuasida bir usuldan ikkinchi usulga o‘tishning tabiiy va mantiqiy asoslangan yo‘lini topish doira ijrochisining mahoratiga bevosita bog‘liqdir. Bundan tashqari, yangi-yangi raqslarni (doira jo‘rligida) yaratish, ularni o‘zlashtirish kabi bir qator tadbirlarda doirachi g‘oyat muhim rol o‘ynaydi. Zero, raqsni erkin rivojlantirishning asosiy mezonlaridan biri usullar

majmuasidir. Buning isbotini biz atoqli sozanda, baletmeyster Usta Olim Komilov va taniqli raqqosa Tamaraxonim doira raqslarini ilk bora ijro etib, ulkan olqishlarga sazovor bo'lganliklarida ko'ramiz.

XX-asrning birinchi yarmiga kelib, yurtimizda doira ijrochiligining o'ziga xos maktabi yuzaga keldi. Uning asoschisi O'zbekiston xalq artisti, Mehnat qahramoni Usta Olim Komilovdir. Ustozning buyuk xizmatlari shundan iboratki, tarixi ikki ming yilga borib taqaluvchi doira cholg'usining yakka ijro imkoniyatlarini ochib berdi. Shuningdek, xalq orasida ommalashgan, o'z ijodiy faoliyati davomida ustozlaridan o'rgangan doira usullarini jamlab, bir tizimga keltirdi, yangi usullar ijod qilib, boyitgan holda doira darsligi sifatida kelajak avlodga qoldirdi. Bu orqali yo'qolib ketishi mumkin bo'lgan ko'plab usullarni saqlab qoldi.

Usta Olim Komilovning boy merosi avlodlar uchun katta maktab vazifasini o'tamoqda. Mashhur doirachilar To'ychi Inog'omov, G'ofur Azimov, Raxim Isaxo'jayev, Anver Barayev, Dadaxo'ja Sottixo'jayevlar ustaning an'alarini davom ettirganlar.

Ularning yetuk shogirdlari ham, o'z navbatida, bugungi kunda yangi avlodga doira chalish sirlarini o'rgatish bilan bir qatorda ularni yuksak saviyali, nafosatli qilib tarbiyalash, dunyoqarashini boyitishda xizmat qilishmoqda. O'quvchi-yoshlarning milliy xalq san'atidan bilim olishlari uchun respublikamiz tuman, shaharlaridagi maktablar, ijodiyot markazlarida doira to'garaklari tashkil etilgan.

Doira to'garaklariga o'quvchilarni qabul qilish jarayoniga alohida e'tiborni qaratish lozim. Musiqaviy xotira, eshitish va qaytarish, usul eshitish qobiliyati mustahkam o'quvchilar to'garakka jalb etiladilar. Mashg'ulotning birinchi kunidan boshlab, har bir o'quvchi o'zining shaxsiy doirasiga ega bo'lishi shart.

Doira musiqasi ilgari nota yozuviga ega bo'lmagan, shu sababli og'zaki ravishda avlodlardan avlodlarga o'tib kelgan.

Mustaqillik yillari o'zbek an'anaviy musiqasiga e'tibor yanada kuchaydi. Milliy qadriyatlar, urf-odatlar va marosimlarning tiklanishi musiqa sohasida ancha o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Qadimiy milliy musiqamizdagi boy badiiy-tasviriy vositalar bilan bir qatorda, yangi janr va turlarini o'zlashtirish natijasida o'zbek musiqa san'ati yana ham yuksak darajaga ko'tarildi. Shu boisdan respublika miqyosida ko'plab ko'rik-tanlovlar tashkil qilinmoqda. Bu esa yosh ijrochilarning o'z san'atlarini namoyish etishlarida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" – Toshkent: "Ma'naviyat" nashriyoti, 2008-y.
2. Akbarov I. "Doiraning zarblari". O'zbekcha usullar to'plami – Toshkent, 1952-y.
3. Islomov D. "Maxsus cholg'u" – Toshkent: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2015-y.
4. Islomov D. "Doira san'ati darg'alari" – Toshkent: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2019-y.
5. Islomov D. "Moziydan sado" – Toshkent: "Ekstremum press" nashriyoti, 2015-y.
6. Vizgo T.S. "Музыкальные инструменты Средней Азии" – Moskva, 1980-y.